



**Tadqiqot UZ**

# ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



30 SENTYABR  
**№32**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
10-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
32-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-10**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
32-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

### "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 32-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 25 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

#### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

#### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

#### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

#### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Auezova Qalligul Qudaynazarovna</b>	
TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANТИРИШ .....	7
<b>2. Abdusamatova Shahodat, Yoqubova Ro`zigul Olim qiz</b>	
KASBIY TA'LIM BERISH JARAYONIDA "KO`CHMA BOZOR" "METODINI QO`LASHNING SAMARADORLIGI .....	9
<b>3. Baxtiyorova Shahloxon Ixtiyorovna</b>	
O`SIB BORUVCHI YOSH AVLODLARNI AXLOQIY VA ESTETIK DIDLI QILIB TARBIYALASHDA OILANING O'RNI .....	11
<b>4. G'ofurjonova Go'zal Erkinovna</b>	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI .....	13
<b>5. Turdiyeva Arofat Toshpo'latovna</b>	
KASBIM -FAXRIM .....	15
<b>6. Valijonova Dilafruzxon Olimjonovna</b>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA "KASRLAR" MAVZUSINI O"QITISH METODIKASI .....	17
<b>7. Есназарова Зульфия Олжабаевна</b>	
ЁШ БОЛАЛАРДА АУТИЗМ КАССАЛЛИГИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАЛARI VA ДАҶВОЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	19
<b>8. Айрапетова Алена Геннадьевна</b>	
СОЦИАЛЬНАЯ ВОВЛЕЧЁННОСТЬ КАК ФАКТОР ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ФОРМИРОВАНИЮ РЕЛИГИОЗНО-ЭКСТРЕМИСТСКИХ УСТАНОВОК В МОЛОДЁЖНОЙ СРЕДЕ .....	21



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Auezova Qalligul Qudaynazarovna**

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Shumanay tumani 7- sonli umumta'lif  
maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqlada tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga rasm chizish ketma – ketligini, naturaning konstruktiv qurilishini, perspektiva qonun-qoidalarini, soya – yorug'liklarini shtrixlar asosida ko'rsatishi o'quvchining ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirib borishi haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, o'qituvchi, o'quvchilar, innovaciya, bilim, malaka, ko'nikma, ta'lif, tarbiya, didaktika.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovaciyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. O'qituvchining o'quvchilarga rasm chizish ketma – ketligini, naturaning konstruktiv qurilishini, perspektiva qonun-qoidalarini, soya – yorug'liklarini shtrixlar asosida ko'rsatishi o'rjanuvchining ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan kelib chiqadiki pedagogik jarayonda o'qituvchining so'zi eng asosiy o'rinda bo'lib rasm esa to'ldiruvchi vosita hisoblanib, amaliy o'rgatishda muhim o'rinni egallaydi.

Tasviriy san'at darslarida sinf doskasida rasm chizish ko'rgazmalilik principining muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yangi mavzuni og'zaki tushuntirish bilan bir qatorda qisqa muddat ichida chizilgan qoralama ya'ni eskiz o'quvchilarni idrok qilish jarayonini tezlashtiradi. O'qituvchi doskada shakllarning tuzilish qonuniyatlarini, naturani chizish ketma-ketligini chizib ko'rsatishi zarurdir. Biroq doskada tez, malakali rasm chizish o'qituvchidan bir qator maxsus mashqlarni bajarishni bu sohada etarli ko'nikma, malakaga va tasviriy savodxonlikka ega bo'lishini talab etadi. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi zamonaviy pedagogika faniga asoslangan. Tasviriy san'atning didaktik asoslaridan biri barcha o'quv vazifalarining ma'lum bir ketma-ketlik bilan echilishidir. Shunday qilib, rasm chizish jarayoni o'zining boshlanishi, davomi va yakuniga ega. Boshqacha aytganda, narsaning o'ziga qarab rasm chizishning bosqichlari mavjud bo'lip, ya'ni ketma-ketlikda rasm chizish. Bular quyidagilar:

1. Rasm chizish jarayoni joy tanlashdan boshlanadi. Tanlangan joy, ya'ni ko'rish nuqtasi qo'yilgan narsaning shaklini, hajmini, fon bilan bog'liqligini to'la namoyon etishi kerak, yoki uning yaxlitligi ta'minlanishi zarur. Ko'rish nuqtasining to'g'ri tanlanganligi naturaning ancha hajmli, aniq ifodalananishini ta'minlaydi. Ishning birinchi bosqichida chizilayotgan narsani qog'oz tekisligiga kompoziciya nuqtai nazaridan komponovkaga e'tibor qilinib, to'g'ri joylashtirilishi kerak.

2. Rasm qog'ozga nisbatan juda katta yoki juda kichik, o'ng yoki chap tomonga surilgan bo'lmasligi kerak. Qog'ozni joylashtirish tajribasiga ega bo'limgan o'quvchilar o'rghanish jarayonida tasvir izlovchi moslamadan foydalansalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rasmning kompoziciyasini belgilashda yorug'lik tushishi, predmetlarning rangi, tusi, kattakichikligi, ufq chizig'iga nisbatan qanday joylashganligi hisobga olinadi. Tabiiyki, rasm qog'ozga sig'may qolishi mumkin yoki aksincha qog'ozda ko'p bo'sh o'rinn qoladi. Shuning uchun rasmning umumiyligi ko'rinishi engil chiziqlar bilan qog'oz tekisligida belgilanadi: umumiyligi eni, balandligi, uzoq-yaqinligi. So'ng naturada mavjud narsaning bir-biriga nisbatan o'lcham munosabatlari



aniqlanadi. Albatta, ufq chizig'i esdan chiqmasligi kerak. Tasvirning umumiy chegaralari qog'oz tekisligida aniqlab qo'yilsa, rassom shu bilan o'ziga aniq kompozicion vazifa qo'ygan bo'ladi. Shu bosqichdan boshlab kompoziciya ichida joylashgan predmet shakllarining bir-biriga nisbatlarini topgan holda chizish boshlanadi.

Ish jarayonining mazkur bosqichida shakl tuzilishlari aniqlanadi va umumiy soya kiritiladi. Umumiy soyaning ikkinchi bosqichda kiritilishi tasvirlovchiga proporsional bunda predmetlarning bir-biriga tavsifi, munosabatlarni aniqlashda yordam beradi. Proporsional munosabat tushunchasi buyumlarning shakllari, tashqi tuzilishi va tus (soya-yorug') munosabatlarini anglatadi va ular orasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi.

Bu bosqichda shakllarning konstruktiv tuzilishi aniqlanib, hajmini to'liq etkazilishiga erishiladi. Predmetlar soya-yorug'ligi ustida ishlaganda umumiy tus munosabatlariga katta e'tibor berish kerak. Ish jarayonida rasmni o'quv topshirig'i bilan doimiy ravishda solishtirmoq lozim. Shuning uchun molbert yoki planshet rassomdan uzatilgan qo'l masofasida joylashishi shart. Mazkur bosqichda predmetning barcha qismlari va detallariga alohida e'tibor qaratiladi. Yorug'lik tusi orqali rasmda narsaning fakturasi ifodalanadi. Yakuniy ish bosqichida rasm natura bilan, ayniqsa, planlar ifodalash nuqtai nazaridan taqqoslanadi. Bu bosqichdagi vazifa tasvirlangan barcha detallar va shakllarni yaxlitlikka keltirish – umumlashtirishdir. Shuning uchun dastlab yaqin plandagi narsalarning chiziqlari, soyasi, tus munosabatlari bilan solishtiriladi, kerakli joylari bo'rttiriladi yoki aksincha xiralashtiriladi.

Bajarilgan rasm aniq, jonli, tabiatga yaqinroq ifodalangan bo'lishi uchun rasm chiziqlariga katta e'tibor berilishi kerak. Darhaqiqat, qalamtasvirda chiziqning roli katta. Nafis chiziq rassomga qator plastik va fazoviy vazifalar yechimini topishga yordam beradi. Shakl, hajm soya-yorug'siz ham bemalol ko'rsatiladi.

Shu sababli o'qituvchi darsda muvaffaqiyatga erishish uchun o'zida borliqqa nisbatan badiiy ko'rish mahoratini rivojlantirishi kerak. O'quvchilarni darsga qiziqtirish, ularda rasm chizish malakasiga va shuningdek, estetik tasavvurga ega bo'lishlari uchun o'z pedagogik mahoratini ishga solishi kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Hasanov R. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent: «O'qituvchi», 1984.
2. Abdullaev N. San'at tarixi. Toshkent: "San'at", 2001.



**MAVZU: KASBIY TA'LIM BERISH JARAYONIDA "KO'CHMA BOZOR" "METODINI  
Q'O'LASHNING SAMARADORLIGI**

**Abdusamatova Shahodat,  
Yoqubova Ro'zigul Olim qiz**  
Muhammad al-Xorazimiy nomida  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
“Kutubxona axborot faoliyati”yo`nalishi talabasi  
Tel: +998933754215, abdusamotovashahodat@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif jarayonida talabalarning faolligini oshirishda qo'llaniladaigan metod orqali o'r ganilyotgan mavzuni chuqr o'r ganadi va uning barcha qismlarini ko'rgazmali tarzda nomoyon bo'lishi talabalar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishi masalalari keltirilgan

**Kalit so'zlar:** kasbiy ta'lif, jarayon, metod, o'z fikrini erkin ifodalash, bozorni to'g'ri tashkillashtirish.

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lif tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlarn mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

Shu maqsadda muhtaram birinchi prizidentimiz tomonidan kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlabchi chiqildi va hayotga tadbiq qilindi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta'lif sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir. Shu maqsadda hozirgi kunda ta'lif sohasida ko'plab yangiliklar, islohotlar olib borilmoqda. Shunday yangiliklardan ta'lif jarayoniga zamonaviy inovatsiya va metodlarni joriy qilinishidir quyida keltirilgan maqolada ta'lif jarayonida qo'lanilganda foydalanilganda, talabalar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda namoyon bo'ladigan, talabalarni faoliyikka va mustaqil fikirlashga undaydigan metod haqida ma'lumotlar keltirilgan.

“Ko'chma bozor” metodini auditoriya muhitiga qo'llash ko'p ilmiy tehnik baza talab qilmaydigan va talabalar uchun qiziqarlidir. Bu metodni auditoriyaga qo'lash uchun avvalo o'qituvchi pedagog tomonidan talabalar uchun ayni bir mavzu yoki o'xshash mavzular bo'lib beriladi va shu asosida talabalar mavzuni avval o'zlar o'r ganib chiqadilar. Shu asosida guruhlarga bo'lingan tarzda yoki yakka tartibda talabalar o'zlarining fikirlarini himoya qiladilar. Shu bilan birga dastlabkifikrlar eshitilgach bir birlarinig hatto kamchiliklar yoki ularning mavzusidagi obyektning kamchilik va nuqsonarini aytib yanna bir bor o'z fikirlarini maqullaydilar (metod nomidan kelib chiqan holda ular bozorda o'z molini sotayotgan savdogarlar kabi o'z maxsulotini reklama qilishlari kerak bo'ldi). Shu tariqa bo'lib o'tgan munozarada so'ngi xulosa yasaladi va yakunda qaysi fikkir eng to'g'riliqi aniqlanadishu tariqa metod yakunlanadi. Yuqorida ko'rini turibdiki bu metodni qo'llashda o'qituvchi pedagog tomonidan to'g'ri metod tanlanishi, talabalarni jalb qila olish, munozarani to'g'ri nazorat qilish va uni to'g'ri baholash muhim ahamiyatga egadir.

Endi yuqorida keltirilgan metod asosida “Kasbiy ta'lif fanlarini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'rni” mavzusid metodni tadbiqini ko'rib chiqamiz. Dastlab yuqorida aytilganidek talabalar mavzuni chuqr o'r ganadilar va shu asosida o'zlarining fikir va mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar. Chunonchi bunda talabaning erkin fikirlash, o'z fikrini ayta olish va erkin ifodalash mahorat oshadi. Talabalar bu mavzu yuzasidan kasbiy ta'lif fanlarini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'rni qanday metod va texnologiyalarni qo'lash bunda yuqori natija berishi haqida baxs yuritadilar masalan quyidagi na'munadagi kabi



Dars talabi va boshqa qo'shimchalarini hisobga olgan holda turli shartlar va qo'shimcha topshiriqlar ham berish mumkin yuqorida keltilrilganga qo'shimcha ravishda. Xulosa qiladigan bo'lsak yuqorida keltirilgan metod orqali dars jarayonini tashkil etish alternativ texnologiya asosida faqat o'qituvchi talabalarga emas balki talaba ham o'z tengdoshlariga o'rnatishi asosida tshkil qilinadi va mustaqil fikirlashga bo'lgan ishtiyoqini rivojlantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T., 1997 yil.
2. I.A.Karimov. "O'zekiston buyuk kelajak sari" T., "O'zbekiston", 1998 yil.
3. Assisent D.O Kamalova “ Pedagogika (Barcha yo'nalishlar uchun ma'ruzalar matni) Toshkent 2018



## O'SIB BORUVCHI YOSH AVLODLARNI AXLOQIY VA ESTETIK DIDLI QILIB TARBIYALASHDA OILANING O'RNI

**Baxtiyorova Shahloxon Ixtiyorovna**  
Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi  
1-sonli ixtisoslashgan maktab-internati  
tarix va tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'sib boruvchi yosh avlodlarni tarbiyalashda ota-onaning roli va oilaning ahamiyati, ota-onalarning farzand oldidagi burchlari, ularning kelajakda barkamol avlod bo'lib yetishishlari yo'lida olib boriladigan say-harakatlar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya tushunchalari, oila, axloq, estetik did masalasi.

Yoshlarning ma'naviyatini shakllanishida oilaning o'rni juda katta, ishonchli tayanchlardan biri: bu o'z oilasidir. Oila-bu nikohga yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Hayotdagi eng bebafo narsa-bu oila, oldin o'zing tug'ilganing, keyin esa o'zing yaratganing. Oila-ijtimoiy, tabiiy talablar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan insonlar birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirish, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratishdir. Oilada ota-ona maqomi oilaning asosiy ustuni, barcha tushunchalar aynan shular asosida shakllanadi. Ota-onaning vazifasi bardavom bo'lgan hayot estafetasini avlodlariga chiroli qilib uzatishdan iboratdir. Ota-onalar vaqtি kelib shu yosh farzandlari voyaga yetganlarida ularning qiyofasida o'zini ko'rganida uyalmaydigan, aksincha, xursand bo'lib faxrlanadigan qilib, avvalo o'zini keyin esa farzandlarini tarbiyalashi lozim bo'ladi. Ko'pchilik ota-ona uchun farzand ko'rishga tayyorgarlik oldindan boshlanadi: homiladorlikni rejalashtirish, bolani 9 oy vujudida ko'tarib yurish, tug'ruqqa tayyorlash, tug'ilishning o'zi va keyingi hayot. Haqiqatdan ham bola tarbiyasi onaning qornidaligidan boshlanishi lozim deyilgan. Oilada farzand tug'ildi, ota-onaning bir-biriga bo'lgan mehr- muhabbatining mevasi bo'lmish bu go'dak oilaga bir olam quvonch va shodlik olib keladi, chunki oilaning uzilmas rishtasi, avlodning davomchisi bola ekanligi barchaga ma'lum. Shuni aytib o'tish joizki, bolaga ma'noli ism qo'yish ota-ona uchun eng katta mas'uliyatli vazifadir. Oilani mustahkam saqlash bu ota-onaning burchi hisoblanadi, chunki bitta oila buzilsa, jamiyatga va yana shu muhitda katta bo'lgan bolaning tarbiyasiga ham juda katta ta'sir etadi. Shuning uchun oila bo'lmish bu qo'rgonni avaylab-asrab ota-ona degan huquqiy nomni oqlash lozim. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Oila haqida gapirar ekanmiz, buning oxiri yo'q. Olim va buyuk alloma hisoblangan Abdurauf Fitratning "Oila" asarida va Farobi, Beruniy, A.Navoiy, Bobur va Nodiralar oila haqida chiroli fikrlar qoldirishgan hatto Zardushtiylikning qadimiyligi kitobi "Avesto"da ham oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er-xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Bizga ma'lumki islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish "Qur'on" va hadislarda odob-axloq, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan. Shuning uchun ota-onalar farzandlariga o'zlarini namuna bo'lishlari kerak, ularni axloqiy va estetik didli qilib tarbiyalashlari lozim. Yoshligidan kerakli tarbiyani berishlari kerak, bola tarbiyasida o'z ota-onasi ma'sul hisoblanadi, chunki bola eng ko'p vaqtini oilasi bag'rida o'tkazadi, ota-onasiga qarab harakatlanadi, masalan, bola yoshligidan ota-onasini kasblariga qarab harakatlanadi, shulardek bo'lishga harakat qiladi. Bu harakat esa ularni o'qishga undaydi, ammo vaqtি kelib ularning qiziqishlari o'zgarishi mumkin. Boshqa kasblarni tanlashga harakat qiladi, ularni qiziqish va qobiliyatini inobatga olgan holda, ularga sharoit yaratish berish lozim bo'ladi. Ota-ona har doim bolalariga e'tiborli bo'lishi kerak, to'g'ri yo'lni tanlashda maslahatgo'y bo'lishi lozim. Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan, bu yengil ish emas, u ilohiy narsa, tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani. Farzand oq qog'oz kabi tug'ilganda begunoh tug'iladi, agar ota-ona yoki murabbiy farzandga bir lahza e'tiborsiz bo'lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi. Tarbiya bola otasi-onasini tanishidan boshlanadi degan gap mutloq xato, chunki tarbiya ona qornidaligidan boshlanadi, yani shu paytdan boshlab ota-onaning fe'li bolaga o'tadi, shuning uchun bola tarbiyali bo'lishi uchun otasi tarbiyali bolishi kerak, onasi nasl-nasabli, pokiza, din-diyonatli bo'lsa, otasi ham shunday



bo‘lsa, albatta, bola nasl nasabiga tortadi, undan qochib ketolmaydi. Har bir ota-onas farzandiga faqat yaxshi narsalarni ilinadi, farzand uchun orzu-havas qiladi va ikkalasi birga ishlaydi. Ayrim ota-onas farzandini tarbiya qilish kerak bo‘lgan paytda orzu-havas uchun tirikchilik qilishga majbur bo‘ladi, chet elga ketishi mumkin yoki biznes qilishi mumkin, davlat ishida ishlab vaqtida bolasiga vaqt ajrata olmasligi mumkin, oqibatda beparvolik evaziga bola tarbiya oladigan yoshda to‘liq tarbiya ololmay qoladi. Ammo, afsuski ertaga orzu-havaslar o‘tmay qolishi bor, aslida bu orzu havas chiroyli tarbiya bilan bo‘ladi. Payg‘ambarimiz s.a.v.ning “Ota farzandiga chiroyli tarbiyadan ko‘ra, yaxshi odob berishdan ko‘ra yaxshiroq narsa meros qoldirmagan”, -deb aytganlari bejiz emas.

Biz bilamizki, tarbiyaning turlari ko‘p ,masalan, badan tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya va hakozolar. SHulardan eng ustuni bu axloqiy tarbiyadir, buni farzand oilidan oladi, ya’ni o‘z hayot tajribalarini singdirish yo‘li bilan ota-onas beradi. Bugungi kun yoshlarni axloqiy va estetik didli qilib tarbiyalashda, ularni turli yot g‘oyalar ta’siridan yiroqlashtirish, “ommaviy madaniyat” ta’siridan saqlash va bugungi globallashuv davrida, texnika asrida ommaviy axborot vositalaridan oqilona foydalanish yo‘llarini har qadamda chuqur mulohaza qilish orqali oila boshliqlari bo‘lgan ota-onas zimmasidagi buyuk vazifalaridan biri hisoblanadi. Xalqimizda bitta maqol bor “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan, shuning uchun avvalo, ota-onalar o‘zini, keyin farzandlarini tarbiyalashga haqli.

Yuqorida estetik did haqida gapirdik, estetik did bu nima ekan? Bu estetik ongning muhim tarkibiy qismlardan biri bo‘lib, his-tuyg‘u va tafakkur birligi, inson o‘zligini ifodalovchi bahodir. Estetik did ham aqliy (fahm), ham axloqiy (farosat) ham hissiy tarbiya uyg‘unlashgan umumiyligidan iboratdir. Estetik did masalasi shaxs, jamiyat va millat madaniyati uchun katta ahamiyatga ega. Negaki, jamiyatda yuksak didli kishilar qancha ko‘p bo‘lsa, uning madaniyat darjasini yuksaladi, jamiyat farovonlashadi. Alovida insonning estetik didi shu jamiyat madaniyati darajasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli estetik did tarbiyasiga doim e’tibor qaratilgan. Chunki faqat yuksak estetik did egasiga haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyonni go‘zallik prizmasi orqali ko‘ra bilish qobiliyatiga ega bo‘la oladi. Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, bunday sharoitlari bisyor yurtning yosh avlodlari axloqiy va estetik did egalari bo‘lishi lozim. Yurtimizda yosh avlodlarga va oilalarga qaratilayotgan e’tibor kundan kunga oshyapdi. Bizga imkoniyatlarni yaratib berib, ishonch bilan qarab turgan muhtaram Prezidentimizning biz yoshlarga bildirayotgan ishonchini oqlashimiz lozim, huquqiy demokratik jamiyatga foydasi tegadigan insonlar bo‘lishimiz kerak, deb o‘yayman. Ushbu maqola oilaviy hayotning yaxshilanishi oilaviy baxning va oilaviy tarbiyaning mukammalroq bo‘lishiga hissa bo‘lsa ajab emas, degan niyat bilan yozildi. Bu maqoladagi kamtarona satrlarda bir yaxshilik topsangiz, boshqalar bilan baham ko‘rasiz degan umiddaman. Har bir jamiyat a’zolari bir-birlariga, o‘zlarining tajribalari bilan o‘rtoqlashish asosida foyda beradilar. Oilalarimizning mustahkamligi o‘sib boruvchi yosh avlodlarni tarbiyasi ularning baxtiyorligi barchamiz uchun zarurdir. Yoshlarga diniy va dunyoviy bilimlarni to‘laqonli o‘rgatish lozim, bir lahma ularga befarq bo‘lmaslik kerak, shundagina biz yoshlar orasidan Al-Xorazmiylar, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy va Zulfiya, A.Temurlar yetishib chiqadi. Har bir oilada erxotin farzandlari bilan tinch-totuv, ahil-inoq bo‘lib, baxt nashidasini surib yashashi ayni muddodir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila”, asari.
2. Tarbiya nazariyasining mohiyati va mazmuni.
3. Abu Ali Ibn Sinoning ta’lim tarbiya haqidagi asari.



## BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

G'ofurjonova Go'zal Erkinovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi  
Jizzax akademik litseyi biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'linda biologiya fanini o'qitishning dolzarbliji va ahamiyati yoritilgan. Biologiya fani o'qituvchilariga qo'yilayotgan talablar va shu asosda erishiladigan yutuqlar qisqacha tahlil etilgan. Hamda mamlakatimizning xalqaro tadqiqotlardagi ishtirokining o'quvchilar dunyoqarashini o'stirishdagi roli haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ilm-fan taraqqiyoti, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lism, biologiya fani, biologik tabiiy mahsulotlar, o'qituvchi, o'quvchi, xalqaro tadqiqotlar, PISA, STEAM, hayotiy ko'nigmalar, zamonaviy axborot va komunikativ texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, iqtidorli yoshlar.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'linda biologiya fanidan ta'lism berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarishda, biologiya sohalarining rivojlanishida, biologik tabiiy mahsulotlardan foydalananishda, aholini sog'ligini saqlashda va sifatlari oziq-ovqat bilan ta'minlashda, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda biologiya faniga e'tibor har qachongidan ham kuchaymoqda. Bu e'tibor biologiya fani o'qituvchilariga quyidagi talablarni qo'yamoqda:

- biologiya fanini o'qitishni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, jumladan, zamonaviy axborot va komunikativ texnologiyalardan, elektron darslik hamda zamonaviy laboratoriya jihozlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishning yangi ilmiy yo'naliishlari va tamoyillarini ta'limga tadbiqu etish;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lism muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilash orqali biologiya o'quv fani davlat ta'lism standarti talablarining ta'lism sifati va kadrlar malakasiga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;
- o'quvchilarni biologiya fani bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish;
- biologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy yo'naliishlari va tamoyillarini tadbiqu etish;
- biologik ta'lism-tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini, mazkur jarayonning ilmiy asosda tashkil etilishi va boshqarilishi, kutiladigan natijalar samaradorligini orttirish;
- o'quvchilarning bilim olish, tarbiyalash va rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratish, har bir o'quvchini o'z imkoniyati darajasida ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga imkon yaratish;
- biologiyani o'qitishda ta'lism-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, biologiya o'quv fani mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, jinsiy, mehnat va baynalminal tarbiyalash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiyajarayonini didaktik jihatdan ta'minlash, o'quvchilarning qobiliyatlarini va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;
- biologiyani o'qitish jarayonini tabaqaqalashtirish asnosida iqtidorliyoshlarni aniqlash, ularning ehtiyoji va qiziqishiga yarasha bilim olishlariga imkon yaratish;
- biologiya o'quv fani bo'yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda o'quv metodik majmualarini yaratish.

Bugungi kunda o'qituvchilar uchun yaratilgan barcha shart-sharoitlar, berilayotgan keng imkoniyatlar ular mas'uliyatini yanada oshirmoqda. Agar o'qituvchilar belgilangan talablar asosida muntazam ravishda o'z ustida ishlasa, bu jarayon o'z navbatida, **birinchidan**, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. **Ikkinchidan** o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkurni shakllanadi. Bu esa o'z navbatida o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lism-tarbiya samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.



**Uchunchidan** o‘quvchilarga biologik ob’ekt va jarayonlarning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, hamda olgan nazariy bilimlari asosida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish ularda hayotiy ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllanishiga yordam beradi. **To‘rtinchidan** ta’lim va tarbiyani uyg‘un olib borish, o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy, ahloqiy yetuk shaxs sifatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. **Beshinchidan** biologiya fanining science fanlari tarkibida o‘qitilishi o‘quvchilarni yoshlikdanoq kreativligini shakllanishiga, ijod qilishiga yo‘naltiradi va yaratuvchanlikka o‘rgatadi.

Shu nuqtai-nazardan mamlakatimiz ta’limining xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ham o‘quvchi yoshlarni har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi avvalo o‘zi xalqaro baholash dasturi (PISA) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashi va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi orqali o‘quvchilarni mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatishi kerak. PISA – o‘quvchilarning o‘qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, o‘quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga mo‘ljallangan. Bu baholash dasturi shuningdek, o‘quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma’lumot to‘playdi va o‘quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko‘nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o‘quvchi yoshlarning fikr munosabatlari va ular bergen taklif va echimlarni baholaydi.

Bugungi kunda ana shunday iqtidorli yoshlarni voyaga yetkazish maqsadida ta’lim muassasalarida STEAM xonalari tashkil etilmoqda. Bu xonalarda tashkil etilgan darslar albatta o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, yaratuvchanlikka o‘rgatadi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar,-“Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar”.

Yuqoridagi fiklardan kelib bugungi biologiya o‘quv predmetining asosiy vazifalari sifatida o‘quvchilarga asosiy bilimlarni berish bilan birga uлarda ilmiy dunyoqarash va amaliy muammolarni hal etish savodxonligining shakllantirish davr talabi hisoblanadi. Hamda o‘quvchilarda biologik ob’ekt, hodisa va jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish, biologik qonuniyatlar mohiyatini tushuntirish ko‘nikmalarini tarkib toptirish orqali nafaqat bugungi pandemiya sharoitida, balki har doim o‘zlarining va o‘zgalarning salomatliklarini saqlashga, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga yo‘naltirish kerak bo‘ladi. Shuningdek fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishga katta xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-997-sonli qarori. 2018-yil 8- dekabr.
2. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo‘llanma. Toshkent-2019.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent-1997.



## KASBIM -FAXRIM

**Turdiyeva Arofat Toshpo'latovna**  
Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani  
51-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida joylashgan 51-maktab pedagoglarining so'nggi 5 yil ichida erishgan yutuqlari, maktabdagi o'zgarishlar va ta'lif tizimidagi yangiliklar haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, 14-maktab, Abdullayeva Munojot, 1991-yil 2-sentabr, raqamlı texnologiyalar.

Men yoshligimda o'qituvchilik kasbini yoqtirar edim. Hozirda o'z maqsadiga yetgan insonman. Men 33 yillik tajribaga ega muallima sifatida bugun shu tanlovga qatnashish bahonasida o'z hayotimga, o'tgan umrimga nazar tashlamoqchiman. Men 1991-yil 2-sentabrda "Mustaqillik" bayramining ilk kunlarida To'raqo'rg'on tumanidagi 14- maktabda, o'zimni o'qitgan ustozlarim qo'l ostida ish boshladim, bu mening birinchi yutug'im edi. Aytish joiz, Mustaqilligimizning ilk yillarda boshimizdan ancha qiyinchiliklar o'tdi. O'quv jarayonlari u yoqda qolib, umrimiz paxtazorlarda o'tdi. Ko'chalarни supurdik, gullar ekdik, hatto "Qamchiq dovon'i" ga archa ekishgacha bordik. Sekin- asta obro'yimiz tushub bordi. "O'qituvchi bo'lishni xohlaysanmi" – degan o'quvchilardan: "Sizga o'xshab-a" degan javobni eshitish biroz og'irlik qildi. O'sha paytlarda marhum qiziqchi Xojiboy aytganidek : "To'ylarda o'qituvchilar o'tirgan uyidan haydalib, o'rniga traktorchilar taklif etilayotgan paytlar edi". E'tibor bergan bo'lsangiz telegramm orqali: "Yaxshiyam mening ustozim urib, so'kib o'qitmagan, bo'lmasa men ham hozir ularga o'xshab, arzimagan maoshga qarab o'tirar edim ",-degan lavhalarni ko'rish biz sharaflı kasb egalari uchun bir oz ko'nglimizni hijil qildi. Xalqimizda: "Ikki kemaning boshini tutgan g'arq bo'ladi", degan maqol bor. Biz ma'lum muddat o'zimizni ham, bolalarni ham g'arq qildik, sababi bizni qora ishlarga jalganligimiz, oylik maoshlarimiz turli ushlamalardan so'ng oz miqdorda to'langanligi, pulli kurslarning ko'payganligidadir. Jamiyatda xo'rlikka yuz tutgan o'qituvchini ota-ona ham, o'quvchilar ham hurmat qilmay qo'yishdi. O'quvchilar hatto o'qituvchilarni haqorat qilganlarini ham guvohi bo'ldik. Moddiy manfaatdorlikni aytmasak ham bo'ladi. Shu va boshqa ob'ektiv va sub'ektiv sabablar bilan ko'pchilik o'qituvchilar o'z kasblarini tashlab, chet ellarga ish qidirib, chiqib ketishdi. Taqdir taqazosi bilan men keyingi ish faoliyatimni 51- maktabda davom ettirdim. Jamiyatda ildiz otgan poraxo'rlik, korrupsiya holatlari ta'lif tizimini ham chetlab o'tmadi. Men buni o'z hayotimdan birgina misol orqali aytib o'tmoqchiman . Mening o'quvchim Abdullayeva Munojot Salohiddin qizi 2002-yil, 11-Respublika bolalar anjumanida faxrli 1-o'rinni egallagani uchun tavsiya etilgan ko'krak nishoni boshqa birovga berilib, menga kichik "radio" sovg'a berilgan . Sovg'ani katta – kichigi bo'lmaydi deb, faoliyatim davomida birgina yupanch bilan ovutdim o'zimni. Biz mustaqil Vatan poydevorini quryapmiz, hamma narsani boshi qiyin boshlanadi, bu davr insonlari nomi tarixda qoladi degan sharaf meni ovutar edi. Mayli, balkim men mukofotlarga loyiq emasdurman, lekin mehnatlarimning samarasini shogirdlarimda barq urub turgandan, o'zimni o'quvchim qo'l ostida ishlayotganim, o'quvchilarim bilan yelkadosh bo'lib bir kemada suzayotganim, yonimda ishlayotgan o'quvchilarimni har bir, "ona" degan so'zidan beihtiyor ko'zimga yosh olaman, umrim o'tayotgani ko'z oldimdan o'ta boshlaydi, lekin tanlagan kasbimdan afsuslanmayman.

Oradan yillar o'tdi. Mana, besh yildan buyon ko'ksimizga shamol tegib, kimligimizni anglayapmiz. Bizga ikkinchi kasb qilib berilgan majburiy mehnatdan qutuldik. Ta'lilda yangi islohatlar ro'y berdi. Attestatsiya jarayonidagi shaffoflik biz ustozlarni quvontirdi. Ustozlar endi bilimi, toifasi, dars jarayonidagi yutuqlariga qarab oylik maosh va ustama haqi oladigan bo'ldilar. Ta'limga yangi raqamlı texnologiyalarning joriy etilishi undagi samaradorlikni ortishiga xizmat qildi. Kundalik com.da jurnal yuritish qulaylik yaratish bilan birga, baholash tizimida shaffoflikni ta'minladi.

Muhtaram Prezidentimiz Senatga qilgan murojaatlarda: "Jamiyatda o'qituvchilik kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim", -deb ta'kidladilar. O'zbekistonni kelajagi bo'lmish yosh avlodni tarbiyalash maqsadida "Yangi O'zbekiston- maktab ostonasidan, ta'lif –tarbiya



tizimidan boshlanadi”, - degan g’oya asosida keng ko’lamli islohotlarni amalga oshiryapmiz. Ayniqsa, maktabimiz “Zamonaviy maktab” reytengida qatnashib nufuzli o‘rinni egallagani o‘quvchilarimizning fan olimpiadalarida o‘rni balandligi, sport yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilarimiz OTMlarga to‘g‘ridan- to‘g‘ri yo‘llanma olganligi, OTMlarga o‘quvchilarni qamrab olish va o‘qishga kirishidagi erishilgan yutuqlar jamoada mehnatsevarlik ruhi ustunligini ko‘rsatib turadi. Bu yutuqlarga erishishimizning sababchisi, hammamizdan yosh bo‘lishiga qaramasdan bizga bosh bo‘layotgan, shioatli va talabchan direktorimiz D.Xudoynazarovani harakatlarida deb o‘ylayman.

Adliya vazirligining O‘qituvchi maqomi to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasidan o‘tgandi, ikki yil bo‘lyaptiki, hali hamon jimlik. Lekin jamiyatda o‘qituvchining obro‘sini, nufuzini tikelmas ekanmiz, o‘z kelajagimizga o‘zimiz bolta urgan bo‘lamiz. Buning uchun chekka qishloqlarda ham xonalarni zamonaviy texnalogiya bilan jihozlab, bolalarni telefondan, qulog‘idagi eshitish moslamasidan ajratib olib, bolalarga kuchliroq va qiziqarli materialarni taqdim eta olishimiz lozim. Bu maqolani yozayotgan ayni pallada, men yurtimizga bostirib kirgan qurolsiz, ko‘rinmas dushman bilan olishib, karantinda yotgan edim. Bir yarim yildan so‘ng nasib etsa nafaqaga chiqaman. Garchi mukofotga loyiq topilmasamda, Vatanim va xalqimiga sidqidildan xizmat qildim, umrim bekorga o‘tmadi deya olaman. Deyarli barcha soxada shogirdlarim bor. “Kasbim–fahrim” degani shu bo‘lsa kerak. Men maqolamni quyidagi she’riy parcha bilan yakunlamoqchiman.

Kimlar “alvon” kiydilar,  
Kimlar,,armon” kiydilar,  
Kimda boru, kimda yo‘q,  
Buni hayot deydilar.

Darhaqiyqat, “armon” kiyishdan Alloho ni o‘zi asrasin.

Yodingdami huv o‘sha bahor...

Suvi to‘lib oqardi anhor,  
Endi armon bo‘ldimi diydor,  
Yoshlik bizni tashlablar ketdi,  
Ko‘zimizni yoshlablar ketdi.

Men shuni angladimki, baxtli bo‘lish uchun, avvalo, baxtsizlikning eng yomon darajalarini yashab o‘tish kerak ekan.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA "KASRLAR" MAVZUSINI O"QITISH METODIKASI

Valijonova Dilafruzxon Olimjonovna

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani

52-umumiy o'rta ta'lim mактабининг

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Telefon: +998978722326

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich matematikada muhim o'rin tutgan "Kasrlar" xossalarini, xususiy xollarini va ularni ishlatish usullari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** "Kasrlar", o'nli kasr, to'g'ri kasr, noto'g'ri kasr, to'rtburchak, qog'oz, amallar, surat, maxraj.

Boshlang'ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Boshlang'ich bilimlar yagona majmuani yaratadi, zaruriy metodologik tasavurlarni va fikirlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'uvchilarni kasrlar bilan tanishtirish dasturga binoan 4-sinfdan boshlanadi. Kasrlarni hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, sonni ulushini topish va berilgan ulushiga ko'ra sonning o'zini toppish bilan tanishadilar. 4-sinfda 1 ning ulushi va bir necha ulushi, uning yozma ko'rinishi tasavurlariga ega bo'ladilar. Kasr tushunchasi geometriyada kesma ulushi, middorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog'langan.

Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo'laklarga bo'lisch, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang'ich sinfdan oldin, ya'ni maktabgacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang'ich tushunchalari berilgan. Masalan, olma, tarviz, bodring, non va boshqalarni bir necha bolaklarga bo'lib ko'rgan va boshlang'ich tushunchalarni olgan. Shu maqsadda bolalarni ulushlar bilan tanishtirish, taqqoslashni o'rgatish, sonning ulushlari va ulushi bo'yicha sonni topishga doir masalalarini yechish ko'zda tutiladi. Aylib o'tilgan barcha masalalar

ko'rgazmali qilib ochib berildi. 3-sinfda birning ulushlari, ya'ni  $\frac{1}{2}, \frac{1}{3}, \frac{1}{4}$  vahakozo ulushlarga

oid tasavvurlarni hosil qilishdan iborat. Kasirlarni o'rgatish ko'rgazma asosida tushuntiriladi. Bu ko'rgazmalarga meva, qovun, tarvuz, geometrik shakl, cho'p, qog'oz va boshqa atrofdagi narsalarni olish mumkin.

Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan, olmani teng ikkiga bo'lisch, yordamida kasr hosil qilnadi. Shunga mos olmani teng bo'laman ikki bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini, demak, kasrni hosil qilmaslikni, tushintirishi kerak. Faqat teng bo'lakka bo'lganidagina kasr son yoki butunning ulushi hosil bo'lislini mustahkam singdirish lozim.

Butun sonning o'zaro teng bo'lgan ma'lum bir ulushiga **sonning kasri** deyiladi.

Berilgan narsani yoki bir butun sonni qancha teng qismga bo'linganligini ko'rsatuvchi sonni kasrning maxraji, shunday qismdan nechta olinganligini ko'rsatuvchi sonni kasrning surati deyiladi. Umumiy holda kasrni  $\frac{p}{q}$  tarzda ifodalash lozim.  $\frac{p}{q}$  ko'rnishdagi kasrlarga qarama

qarshi kasrlarni  $-\frac{p}{q}$  tarzda ifodalanadi

Kasrlar 3 xil bo'ladi

1. To'g'ri kasr
2. Noto'g'ri kasr
3. O'nli kasir

Agar kasrning surati uning maxrajidan kichik bo'lsa, bunday

kasrlarni **to'g'ri kasrlar** deyiladi.  $\frac{1}{2}, \frac{4}{8}, \frac{1}{6} \dots$

Agar kasrning surati uning maxrajidan katta bo'lsa, bunday kasrlarni **noto'g'ri kasrlar** deyiladi.

$\frac{5}{2}, \frac{7}{4}, \frac{17}{6}$



Agar kasrning maxraji 1 va 0 sonlaridan iborat bo'lsa bunday kasrlarni *o'nli kasrlar* deyladi.

$$\frac{1}{10} = 0,1; \quad \frac{1}{100} = 00,1\dots$$

Turli xil geometrik shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar hamda uning ba'zi shakllarini keltirib chiqaradilar. Masalan, kvadratni teng 4 bo'lakka bo'lismida, uni ikkita yo'l bilan bo'lib, burchaklarining o'zoro tengligiga hamda tamonlarining o'zoro tengligiga asoslanib shuningdek, kvadrat simmetriyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladi.

Bundan keyingi ish teng bo'laklarni ulushlardan bittasini, ikkitasini, uchtasini olib ularni qanday sonlar bilan yozish mumkinligiga o'qitiladi. Kasrlarni ikkidan bir, uchdan bir, to'rtdan bir kabi o'qish va  $\frac{1}{2}, \frac{1}{3}, \frac{1}{4}$  larga narsalarni qanday bo'lib, qancha qismi olinoyotganligi orasidagi

bog'lanishlarni hosil qilish lozim. Shu asosda surat va maxraj hamda kasr kabiyangi atamalar kiritmasdan o'qiladi. Lekin chiziqning pastida bo'tinni nechaga bo'lgan son, yuqorisiga necha ulushni olgan son yozilishi tushuntiriladi.

"Ulushlar" mavzusida shaklni teng bo'laklarga bo'lish asosida ulushlarni taqqoslash ham tushuntiriladi. Masalan, o'qituvchchi 5 ta bir xil to'r'burchakli qog'ozdan yo'lakchali qilib qirqishni taklif qiladi.

Bu yo'lakchaning birinchisini teng ikkiga, ikkinchisini teng to'rtga bo'lib ularni ustma ust qo'yish asosida har bir teng bo'laklarni taqqoslaydi. 3-sinfda sonning ulushini topishni amaliy masalalardan boshlash kerak. Masalan, uzunligi 12 sm bo'lgan qog'oz bo'lakchani olib uni 2 ga buklash topshiriladi.

Bo'lakchaning yarmi necha sm?  $\frac{2}{2} = 6$  sm. Endi bo'lakchani yana ikkiga bo'klab to'rt qismga bo'ladi. Bo'lakchaning qanday qismi hosil bo'ladi va uning uzunligi qancha? Javob:  $12:4=3$  sm  $\frac{1}{4}$  qismi. Bu ish chizg'ich yordamida o'lchab ko'riladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N.U. Bikboyeva va boshqalar. Ikkinci va to'rtinchi sinf matematika darsligi. O'qituvchilar uchun qo'llanma. T., "O'qituvchi", 2002.
2. Omonov. Yuz bilan yuzma-yuz. Qiziqarli matematika. 1- kitob. T., "O'qituvchi", 1995.



## ЁШ БОЛАЛАРДА АУТИЗМ КАССАЛЛИГИННИГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАЛЛАРИ ВА Даъволашнинг ўзига хос хусусиятлари

Есназарова Зульфия Олжабаевна  
Қорақалпоқ давлат университети тадқиқотчиси

**Аннотация:** Маколада бугунги кунда ёш болаларда аутизм кассаллигининг келиб чиқиш сабаблари ва даъволашнинг ўзига хос хусусиятлари шунингдек, ривожланган давлатлараро ҳамкорлик ишлари ёритилган.

**Калит сўзлар:** аутизм, аспергера синдроми, эхолалия, анемия, диагноз, тадбир, сфера, агрессия биопсия, ретта.

Бугунги кунда аутизм деб номланувчи касаллик турини даъволашда давлатимиз томонидан бир қанча ижобий ишлар амалга оширилиб келинмоқда. Аммо, гарчи ундан азоб чекаётганларнинг баъзилари озми-кўпми нормал ҳаёт кечириши мумкин бўлса-да, аксарияти ўзларининг кундалик ҳаётларида ўзларини тўғри тута олишлари учун бошқаларнинг ёрдамига муҳтоҷ инсонлар ҳисобланади. Шу боис мамлакатимиз тажрибали шифокор, психиатр, невролог ва логопед мутахассис (кадрлар)ни етиштириб чиқаришда илғор ишлар олиб бормоқда.

Авваламбор, ушбу кассаликнинг мазмун-моҳияти ва тушунчасини билиб олишимиз лозимдир. Аутизм (грекча «аутос» – «ўзим» деган сўз) – бу руҳиятнинг ўзига хос ҳолати бўлиб, сезиларсиз аутистик хусусиятлардан доимий парвариш қилиниши зарур ҳисобланади ҳатти-ҳаракатлари конкрет воқеалик билан боғлиқ эмас, аутизм синдроми қиз болаларга қараганда ўғил болаларда кўп учрайди, бемор ташқи олам, атрофдагилар билан мулоқот қилишни истамайди, ёлғизликни ёқтиради, касалликни қийинлигидан далолат беради, бирхил сўзни такрорлайди, бола ўз оламида яшайди, дунё қарashi бошқаларнига ўхшамайди, ҳиссий кечинмалар асосий ўрин тутади.

Олимларнинг фикрини ўрганган ҳолда, аутизм кассалигининг келиб чиқиш сабабларини кўриб чиқсан: ҳомилани она қорнидалик даврида маълум бир турдаги оқсилиларнинг етишмовчилиги, организмда икки хил оғир металнинг, қўрғошин ва симобни, кўпайиб кетиши, атроф табиий муҳитни экологик бузилиши, ҳомиладорлик пайтида кучли стресс ҳолатларининг бўлиши, қон босимнинг ошиши ва кам қонлик ва буйракда босим ошиши ва бошқалар сабаб бўлиши мумкин.

Аутизм касаллиги ёшга қараб эрта болалик аутизми – 2 ёшгача, болалик аутизми – 2-11 ёшгача, ўсмирлик аутизми 11-18 ёшларгача.

Кўшимча қиладиган бўлсак, аутизм синдроми яна белгиларидан ижтимоий қолоқлик, мулоқотда ўз-ўзи билан гаплашиш, ҳар хил қўйл ҳаракатлари қилиш, умумий белгиларнинг эрта бошланиши, боланинг онасига беътиборлилиги (кулиш, жисмоний ҳаракатлар, овоз чиқаришлар), боланинг «тайёргарлик» ҳолати йўқлиги яъни уни кўтаришга уринганда кўйларини чўзмаслиги, тиззаларида туришга ҳаракат қилмаслиги, эмишдан бутунлай тўхташи, жамоа билан ўйнашни истамаслик, ота-она ва бошқалар билан ўйнаганда инжиқлик қилиш, ёлғиз ҳолда ўйнашни хоҳлаш ва хоқазолардир.

Хозирги кунга қадар аутизмни даволашнинг маълум бир конкрет усули яратилмаган, гарчи нутқ ёки хулқ-автор терапиясининг айрим турлари ушбу касалликка чалинган одамларга нормал ҳаёт кечиришга кўмаклашади.

Даволашда бир қанча чора тадбирларни амалга ошириш мумкин. Масалан: сўзлашиш учун расмли карточкалардан фойдаланиш ёки планшет, гапириш қобилиятини яхшилаш мақсадида логопед билан машғулотлар олиб бориши, бир сферада фақат бир мутахассис билан, компьютерда сўзларни ёзиб ўргатиш, бола билан ҳар хил ўйинлар ўйнаш ва медикаментоз даволаш фақатгина агрессия бўлсагина буюрилади.

Аутизм касаллигини даволаш бўйича Ўзбекистонда биринчи хусусий «Шукрон Таълим» мактаби 2018 йилнинг сентябр ойида ўз фаолиятини юритишни бошлаган. Ушбу мактабда аутизм ташхисли болаларга алигафренопедагогикадан ташқари, бутун дунё тан олган хулқ авторнинг амалий таҳлили методикаси – АБА терапия йўналиши бўйича ишлар, амалий машғулотлар олиб борилмоқда.

Бугунги кунгача аутизм касаллигини генетик касаллик деб ҳисоблашган. Лекин сўнгги



маълумотларга кўра, аутизм касаллиги атроф-муҳитдаги заарли-кимёвий моддаларнинг кўпайишидан келиб чиқмоқда. Касалликни қанча эрта аниқлаши ва даъволаниши шунча муҳитни ўзгартиришга ижобий самара беради [1].

Мазкур касалликни даъволашда бир қанча ривожланган давлатлар билан ҳамкорлик ишларини, асосан Россия Федерацияси [2] билан амалга оширмоқда ва ўз ижобий натижаларини бермоқда.

Юкоридагиларга биноан аутизмга чалинган касал болаларни қандай бўлса шундай қабул қилиш лозим ва катталар буни ўз вактида аниклаб, уларни қўллаб-қувватлашлари зарур. Мамлакатимизда аутизмга чалинган болаларни даъволайдиган, ўқитадиган ва тарбиялайдиган - диагностика реабилитация марказларини янада кўпайтириш лозим ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. [www. <https://kun.uz/uz/news/2018/12/27/autizmar>](https://kun.uz/uz/news/2018/12/27/autizmar).
2. [www. <http://nukusfm.uz/news/rossiya>](http://nukusfm.uz/news/rossiya).



## СОЦИАЛЬНАЯ ВОВЛЕЧЁННОСТЬ КАК ФАКТОР ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ФОРМИРОВАНИЮ РЕЛИГИОЗНО-ЭКСТРЕМИСТСКИХ УСТАНОВОК МОЛОДЁЖНОЙ СРЕДЕ

Айрапетова Алена Геннадьевна  
доктор философии (PhD) по психологическим  
наукам tera-incognita@mail.ru +998977849449

В научном докладе представлены социально-психологические факторы, характерные для молодёжной среды. Приводятся виды социальной вовлечённости и обоснование их актуальности с позиций групповой динамики и конформности. Продемонстрирована корреляционная взаимосвязь социальной вовлечённости с религиозной толерантностью и сформированностью религиозно-экстремистских установок.

Ключевые слова: социальная вовлечённость, молодёжная среда, самосознание, самоидентификация, социальная идентичность, конформность, групповое общение, личностные деформации, экстремистские установки, экстремальный потенциал, религиозная толерантность.

Согласно экспертным оценкам, около 80% членов деструктивных религиозных организаций, пропагандирующих и применяющих агрессию и насилие, составляют лица, возраст которых не превышает 30 лет. Молодёжная среда является наиболее подверженной радикализации частью социума, в которой проще и быстрее формируются деструктивные религиозные установки, экстремистские взгляды, происходит аккумуляция и выброс протестного потенциала.

Специфичность протекания указанных процессов объясняется социально-психологическими характеристиками данной возрастной группы, остротой восприятия окружающей обстановки, высокой подверженностью деструктивному влиянию [1].

Наиболее вероятным периодом для формирования религиозно-экстремистских установок является возраст от 14 до 22 лет, которому, наряду с нейрофизиологическими особенностями, характерны такие социально-психологические факторы как:

- интенсивное развитие самосознания;
- трудности в процессе самоидентификации;
- готовность к неформатной самопрезентации;
- неустойчивая психика;
- неуверенность в себе, сниженная самооценка;
- внутриличностный конфликт между «Я»-реальное и «Я»-идеальное;
- высокая подверженность внушению и манипулированию;
- обострённое, в некоторых ситуациях, гипертрофированное чувство справедливости;
- экзистенциальный поиск;
- стремление к социальной идентичности;
- колебания ценностных ориентаций.

Основным социально-психологическим маркером возрастного периода 14-22 лет является повышенная конформность, потребность поиска единомышленников, близких по мировоззрению или другим категориям людей, то есть, «своей» группы [2]. Такое поведение объясняется тем, что групповое общение служит важным фактором самореализации и самоутверждения молодых людей, а также значительно усиливает поведенческий вектор, присущий группе.

Здесь необходимо отметить, что если групповое взаимодействие построено на основе совместных коллективных интересов (например, к спорту, музыке, науке и др.) и имеет положительную ориентацию, то процесс формирования личности в такой группе имеет положительный потенциал, компенсирует личностные деформации позитивным видом деятельности и конструктивным содержанием общения.

Если групповое общение носит асоциальную, антиобщественную или криминальную направленность, то динамика поведения будет иметь негативные тенденции в сторону развития различных девиаций, общественно-опасного мировоззрения и экстремистских установок, в том числе, с деструктивной религиозной ориентацией. В социальном аспекте



это означает практически абсолютное отрицание светских форм бытия и полное подчинение своей жизни реализации религиозно-экстремистской доктрины.

Исследования в области социопсихологии религии показывают, что социальные причины религиозного экстремизма в молодёжной среде обусловлены, в том числе, протеканием социализации молодых людей, их участием в групповых процессах [3]. Социальная невовлечённость толкает юношей и девушек на поиск иных форм жизнедеятельности, в которых можно было бы найти психологическую защиту, поддержку, ощущение единства с себе подобными. Данные изыскания могут проявляться в различных формах протеста, в том числе, и религиозно-экстремистских [4].

Не следует забывать и о психологических основах религиозного экстремизма, которые заключаются в особенностях формирования психики. Представителям социальной группы «молодёжь» свойственны юношеский максимализм, стремление добиться желаемого как можно быстрее (и, в некоторых случаях, любым путём), категоричность в оценках и суждениях, повышенная чувствительность, восприимчивость и гиперэмоциональность. Кроме того, многие молодые люди испытывают определённый комплекс неполноценности и находятся в поиске путей его преодоления.

В этом плане экстремальное поведение позволяет снять психическое напряжение и дать выход эмоциям, способствует росту самооценки и самоутверждению. В силу отсутствия жизненного опыта, умения адекватно оценивать угрозы, риски, распознавать деструктивную направленность экстремистских группировок и организаций такое поведение воспринимается некоторыми молодыми людьми как приемлемое. А если принять во внимание, что определённый процент молодёжи социально не адаптирован, то экстремизм при отсутствии альтернативной одобряемой обществом деятельности представляется им как единственно возможный вариант для решения своих психологических проблем.

Превентивная практика показывает, что профилактическая работа, выстроенная только на разъяснениях и контрпропаганде о деструктивной направленности терроризма и религиозного экстремизма, не всегда даёт желаемый эффект. В этой связи в комплекс противодействия формированию религиозно-экстремистских установок необходимо включать формы работы, которые опосредованно оптимизируют и саму личность, и создают необходимую социальную среду, в которой она находится, то есть:

- повышение в общественном сознании роли институтов социализации в формировании гармонично развитой молодёжи;
- развитие соответствующего потребностям и интересам молодых людей продуктивного молодёжного досуга;
- привлечение органов образования к инициации деятельности, направленной на рациональное сокращение свободного времени обучающейся молодёжи, организации доступных образовательных программ для тех, кто не смог поступить на учёбу в ВУЗ (например, подготовительные курсы, мастер-классы, профильные кружки и т. п.);
- снижение у молодых людей психологического дискомфорта, вызванного чувствами невостребованности, незащищённости, нахождения на «социальной обочине»;
- вовлечение молодежи в позитивную социальную практику.

Проведённое нами исследование показало, что важным компонентом социальной вовлечённости молодёжи может стать деятельность, предоставляющая возможность альтернативной реализации накопленного экстремального потенциала через социально одобряемые виды деятельности: спорт, наука, музыка, творчество, информационные технологии, изучение иностранных языков и т. д. Указанные формы социальной вовлечённости студенческой молодёжи оказывают непосредственное и достаточно ощутимое положительное влияние на снижение экстремального потенциала, который с большой долей вероятности может быть реализован в религиозно-экстремистских формах мышления и поведения.

Социально-психологическое исследование проводилось с привлечением 760 студентов (юноши и девушки) некоторых столичных и региональных ВУЗов Республики Узбекистан в возрасте 17-29 лет, имеющих дифференциацию по вероисповеданию, национальности, составу семьи, направленности обучения.

В качестве параметров социальной вовлечённости исследовались такие виды деятельности как посещение спортивных секций, языковых курсов, творческих кружков

и других подобных организаций. Данный формат был мотивирован тем, что, согласно опросу, 97% респондентов не имеют трудового стажа, не являются членами общественных организаций и политических партий. В соответствие с возрастной периодизацией, ведущей деятельность и занятостью по времени для большинства студентов групповой досуг является практически единственной формой социальной активности.

Согласно полученным данным, 52% респондентов (большая часть) не имеют постоянного активного досуга, 48% - посещают различные секции, кружки и занятия. Исследование показало, что наибольшее предпочтение отдаётся спорту и изучению языков, при этом многие юноши и девушки сочетают эти виды деятельности (рис. 1).




Рис.1. Направленность социальной вовлечённости респондентов

Результаты исследования позволяют сделать вывод о том, что не зависимо от конкретного возраста, гендерной, национальной и региональной принадлежности, социальная невовлечённость представляет собой серьёзную проблему - значительный процент молодых людей, не посещающих спортивные, лингвистические, творческие, научные, музыкальные и другие кружки, демонстрируют низкую или пограничную религиозную толерантность (рис. 2).




Рис.2. Взаимосвязь социальной вовлечённости и уровней религиозной толерантности

Ещё один параметр, анализ которого проводился нами во взаимосвязи с социальной вовлечённостью - уровень сформированности религиозно-экстремистских установок.

Проведённые исследования показывают, что у молодых людей с пассивной социальной позицией выявлен пограничный или достаточно высокий уровень деструктивной религиозной направленности (рис. 3).




Рис.3. Взаимосвязь социальной вовлечённости и уровней сформированности религиозно-экстремистских установок

Анализ полученных результатов указывает на то, что социальная вовлечённость и религиозная толерантность находятся в положительной корреляционной взаимосвязи. То есть, чем более социально адаптирован респондент (задействован в нескольких видах активного досуга или занимается чем-то одним, но на профессиональном уровне), тем выше у него развита религиозная толерантность.

Отрицательная корреляция была выявлена между социальной вовлечённостью и уровнем сформированности религиозно-экстремистских установок. У молодых людей, посещающих досуговые, спортивно-оздоровительные и образовательные организации, отмечен нулевой или предельно низкий уровень сформированности религиозно-экстремистских установок.

Описанное влияние социальной вовлечённости на религиозную толерантность и сформированность религиозно-экстремистских установок объясняется тем, что у молодых людей, дополнительно изучающих иностранные языки, занимающихся спортом, увлечённых творчеством и музыкой, компенсируется накапливаемый экстремальный потенциал, развивается критическое восприятие действительности и мышление, тем самым значительно снижается вероятность быть вовлечённым в экстремистскую деятельность. Кроме того, при такой активной и продуктивной форме досуга у молодых людей элементарно не остаётся времени на девиантные формы поведения.

В заключении хочется сделать акцент на том, что «болезнь», как известно, легче предотвратить, чем лечить. Поэтому, на наш взгляд, наиболее эффективным методом профилактики формирования религиозно-экстремистских установок в молодёжной среде является ориентация на укрепление личностных ресурсов молодых людей, создание оптимальных условий их жизнедеятельности, гармонизация социальной среды, в которой они находятся. В противном случае при отсутствии возможности социально адаптироваться, «своей» группой для некоторых юношей и девушек вполне может стать радикальный религиозный культ, псевдорелигиозное сообщество, тоталитарная секта или религиозно-экстремистская группировка.

### Литература

1. Антонян Ю.М. Экстремизм и его причины: монография / Ю.М. Антонян. - М., 2010. - 88 с.
2. Васильева И.А. Об эмпирическом изучении феномена конформизма в малых группах. \ Интегративный подход в психологии (новые исследования): сборник научных трудов под ред. В.Н. Панферова и Е.Ю. Коржовой. СПб.,2004. - с. 40-493.
3. Глазков А.В. Противодействие экстремизму: экстремизм глазами молодежи // Научный журнал «Право. Экономика. Безопасность». 2017. №3. с. 54-55.
4. Тажутдинова Г.Ш., Эминова М.А. Делинквентное поведение как основа становления экстремизма // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2017. Т. 6. № 4 (21).с. 421-423.; Ларионова К.Ж. О молодёжном экстремизме // Наука и современность. 2014. №27. с. 123-126.; Давыдов Д.Г. Причины молодёжного экстремизма и его профилактика в образовательной среде // Социология образования. 2013. № 10. с. 1-10.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(10-қисм)**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 30.09.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000